

# NYC davlat maktablarida nima yangiliklar

Shiko k�t� dokument n� shqip	عرض هذه الوثيقة باللغة العربية	এই নথিটি বাংলা ভাষায় দেখুন
查看本文件的简体中文版本	查看本文件的繁体中文版本	Consultez ce document en franais
이 문서를 한국어로 보십시오	Документ на русском языке	Gade dokiman sa a an Krey�l ayisyen
Переглянути цей документ українською мовою	اس دستاویز کو اردو میں ملاحظہ کریں	Consulte este documento en espa�ol
		Ushbu hujjatni ichida ko'ring O'zbek

[schools.nyc.gov/MessagesForFamilies](https://schools.nyc.gov/MessagesForFamilies)

## 2026-yil mart

Bu Oila uchun yangilanish Summer Rising 2026, 2026-yil kuz mavsumi uchun yuqori sinflari maktabi takliflari, Ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari (PTC), Fuqarolik haftaligi va 2026-yilgi NYC maktab so'rovnomasi haqida muhim axborotni taqdim etadi.

### Mundarija

- **Summer Rising 2026**
- **2026-yil kuz mavsumi uchun yuqori sinflar maktabi takliflari**
- **Ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari**
- **Fuqarolik haftaligi**
- **2026-yilgi NYC maktab so'rovnomasi**

### Summer Rising 2026

NYCPS 2026-yilda Summer Rising taklif qilish uchun Yoshlar va hamjamiyatni rivojlantirish departamenti (DYCD) bilan hamkorlik qilmoqda. Summer Rising boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarini ularning akademik, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini mustahkamlovchi qiziqarli, amaliy tajribalar bilan bog'laydi. Summer Rising **bepul** va hozirda bolalar bog'chasidan 8-sinfgacha bo'lgan har qanday NYC o'quvchisi uchun ochiq. Dasturlash sanalari va soatlari haqida batafsil axborot 3-mart sanasida arizalar qabul qilingach, [schools.nyc.gov/SummerRising](https://schools.nyc.gov/SummerRising) sahifasida ulashiladi.

Summer Rising NYCPS yetakchiligidagi o'quv muassasalari va DYCD Hamjamiyati negizidagi tashkilotlar (CBO) o'tkazadigan rivojlantiruvchi foaliyatlarni o'z ichiga oladi. Bepul nonushta va tushlik taqdim etiladi. Batafsil axborot uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: [schools.nyc.gov/SummerRising](https://schools.nyc.gov/SummerRising).

### Summer Rising MySchools arizasi

Arizalar **2026-yil 3-martdan 27-martgacha** ochiq. Ariza topshirish uchun [MySchools.nyc](https://MySchools.nyc) hisobingizga kiring yoki email manzilingiz, farzandingizning to'qqiz xonali o'quvchi ID raqami va farzandingiz maktabidan olinadigan MySchools hisobini yaratish kodi yordamida hisob yarating. MySchools yordamida yozgi yoki o'quv yili dasturlariga ariza topshirgan bo'lsangiz, farzandingiz avvalroq hisobingizga kiritilgan bo'lishi mumkin. Yodda tuting, MySchools hisobi NYCSA hisobingizdan alohida hisobdir.

Oilalar o'z ilovasiga qo'shadigan dasturlar soni cheklanmagan. Ko'proq dasturlarni qo'shish o'zingiz tanlagan dasturga joylashish imkoniyatingizni oshiradi.

Bu jarayon birinchi darajali **emas**, belgilangan muddatda kelib tushgan barcha arizalar qabul ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda bir xil ko'rib chiqiladi. Ariza topshirish muddati davomida istalgan payt arizangizga o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin. Qo'shimcha savollar uchun [schools.nyc.gov/SummerRising](https://schools.nyc.gov/SummerRising) sahifasiga tashrif buyuring yoki yoki maktabingizga murojaat qiling.

## Individualized Education Programs (Individual ta'lim dasturlari) (IEP) va 504 rejalariga ega o'quvchilar

12 oylik/uzaytirilgan o'quv yili (ESY), Nest yoki Horizon dasturlarida o'qiyotgan o'quvchilar IEP dasturida tavsiya etilgan xizmatlarni ESY, 75-okrug (D75), Nest yoki Horizon yozgi dasturi saytida oladi.

12 oylik IEP dasturida (jumladan ESY, D75, Nest va Horizon) va Summer Rising orqali uzaytirilgan kunlik CBO yetakchiligidagi rivojlantiruvchi dasturda ishtirok etishni istagan oilalar MySchools yordamida ariza topshirishi kerak. Maxsus ko'rsatmalar MySchools saytiga joylanadi.

Farzandingiz faqat Nest yoki Horizon (14:30 gacha), D75 (14:30 gacha) yoki ESY dasturlash (14:00 gacha) dasturlarida qatnashsa va siz farzandingiz uchun kunlik uzaytirilgan rivojlantiruvchi dasturni *xohlamasangiz*, MySchools orqali ariza topshirish o'rniga farzandingizning maktabiga murojaat qiling.

---

## 2026-yil kuz mavsumi uchun yuqori sinflar maktabi takliflari

Farzandingiz 2026-yil kuz mavsumi uchun yuqori sinflar maktabiga 2025-yil 3-dekabrgacha ariza topshirgan bo'lsa, u uchun taklifni **2026-yil 5-mart** sanasida olasiz. **MySchools** hisobingizga kirib, taklif va kutish ro'yxatiga kiritish (mavjud bo'lsa) hamda keyingi qadamlar haqidagi axborot bilan tanishing. Takliflar qanday ishlashi haqida batafsil axborot uchun [schools.nyc.gov/HS](https://schools.nyc.gov/HS) sahifasiga kiring.

---

## Ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari

Mart oyidagi **ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari (PTC)** farzandingizning yutuqlari va uni uyda dastaklash usullarini uning o'qituvchilari bilan muhokama qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Joriy o'quv yilida PTClar masofaviy tashkillanadi, lekin yuzma-yuz variantlar mavjud bo'lishi mumkin. Talabga binoan tarjima va tilmochoq xizmatlari ham mavjud. PTC sanalari maktabga qarab farq qilishi mumkin; farzandingizning o'qituvchilari sizga PTCni rejalashtirishda yordam beradi. Batafsil yo'l-yo'riq uchun [schools.nyc.gov/ptc](https://schools.nyc.gov/ptc) sahifasiga tashrif buyuring.

- **5-mart, payshanba:** Boshlang'ich maktablar va Pre-K markazlari uchun kunduzgi va kechki konferensiyalar
- **12-mart, payshanba:** O'rta sinflar maktablari va D75 maktablari uchun kunduzgi va kechki konferensiyalar
- **18-mart, chorshanba:** Yuqori sinflar maktablari, K-12 va 6-12-sinflar maktablari uchun kechki PTC
- **19-mart, payshanba:** Yuqori sinflar maktablari, K-12 va 6-12-sinflar maktablari uchun kunduzgi PTC

---

## Fuqarolik haftaligi

9-13-yun kunlari yoshlar masalalari, fuqarolik imkoniyatlarini kengaytirish va saylovchilarni ro'yxatga olish tadbirlari jamlangan **Fuqarolik haftaligiga** qo'shiling. Batafsil axborot va Fuqarolik haftaligi hamma uchun (Civics for All) komikslari uchun quyidagi sahifaga qarang: [schools.nyc.gov/CivicsForAll](https://schools.nyc.gov/CivicsForAll).

## 2026-yilgi NYC maktab so'rovnomasi

Yillik **NYC maktab so'rovnomasini 2026-yil 1-aprelgacha** to'ldiring! NYCPS oilalari va 6-12-sinflar o'quvchilari maktablarimizdagi tajribangiz haqida bevosita fikr-mulohaza bildirishi mumkin, bu bizga o'quv muhiti, o'quv dasturlari, yordam xizmatlari va boshqalarni yaxshilashga yordam beradi. So'rovnomani mavjud 13 ta tildan birida pochta orqali yoki onlayn [NYCSchoolSurvey.org](https://www.nycschools.org/survey) sahifasida bugun yuboring yoki [SchoolsAccount.nyc](https://schoolsaccount.nyc.gov) saytida Nyu-York shahri maktablari hisobiga ([NYCSA](https://www.nycsa.org)) kiring.